

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yil yanvar-dekabrida Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YAHM) hajmi joriy narxlarda 15154,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning mos davriga nisbatan 3,0%ga o'sdi.

2018 yil yanvar-dekabri yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 8325,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 1,3%ga oshdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Xorazm viloyatining qo'shgan xissasi 3,0%ni tashkil etdi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish

	Mlrd.so'm		2017 y. yanvar- dekabriga nisbatan, % da
	2017 yil yanvar-dekabr	2018 yil yanvar- dekabr	
<b>I. YaHM</b>	<b>11457,2</b>	<b>15154,2</b>	<b>103,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	11125,0	14658,2	102,9
Mahsulotlarga sof soliqlar	332,2	496,0	107,9
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>11125,0</b>	<b>14658,2</b>	<b>102,9</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5616,6	7565,4	98,9
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1943,2	2825,3	111,5
sanoat	1321,9	2035,1	114,3
qurilish	621,3	790,2	105,7
Xizmatlar	3565,2	4267,5	104,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	638,2	791,2	103,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	893,4	968,0	104,8
boshqa xizmat tarmoqlari	2033,6	2508,3	104,2

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, sanoat – 114,3% (YaHM tarkibidagi ulushi 13,9%), qurilish – 105,7% (5,4%), xizmatlar-104,3% (29,1%)ni tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ida esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1%ga kamayish kuzatildi.

### 2018 yil yanvar-dekabrda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




### Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,7%ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa, 3,3%ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 1,1% punktga kamaydi va hisobot yilida 51,6%ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 1,8% punktga oshdi va 19,3%ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2018 yil yanvar-dekabrda 29,1%ni tashkil etdi va 2017 yil mos davri (32,0%) bilan taqqoslanganda -2,9% punktga kamaydi.

## Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

### 2017 yil yanvar-dekabr



### 2018 yil yanvar-dekabr




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi – 5,4%ni (2017 yil yanvar-dekabr 5,7%), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,6%ni (8,0%), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 17,1%ni (18,3%) tashkil etdi.

## Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2017 yil  
yanvar-dekabr



2018 yil  
yanvar-dekabr



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Statistika faoliyatini tashkil etish va  
yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: M.Sultanmuratov  
Tel: (0-371) 230-87-65